

Tarix- o'tmish kaliti va kelajak yo'riqnomasi

Mirtursunova Gulnora Nozim qizi.

Oriental Universiteti.

Tarix (mamlakatlar va yo'nalishlar bo'yicha) yo'nalishi 3- kurs talabasi

"Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz"

(Shavkat Mirziyoyev)

Annotatsiya: ushbu maqolada tarix fani haqida, u o'zi nima, ma'nosi, kelib chiqishi, yurtboshimizning tarix haqida aytgan gaplari, tarixning insoniyat bilan bog'liqlik jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tarix, Geredot-tarixning otasi, qadimgi yozuvlar, o'tmish, kelajak, manbalar.

Tarix o'zi nima? U qanday yaralgan, uni o'rganishning ahamiyati, hayotimizdagi o'zni, nima uchun "Tarix-o'tmish kaliti va kelajak yo'riqnomasi" deb atadik, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning bu haqida fikrlarini bilib olsak.

Tarix-insoniyatning asrlar, yillar davomida boshidan kechirganlari, to'lagan tajribasi, erishgan yutuqlari va shu bilan birga mag'lubiyatlarining ham aksidir. Uni o'rganish nafaqat o'tmishdagi muhim voqealarni bilish, balki kelajakka to'g'ri yo'l topishda ham beqiyos ahamiyatga ega.

Hayotimizdagi, jamiyatdagi har bir narsaning, voqea-hodisaning o'z tarixi bo'lganidek, tarix so'zining ham o'z tarixi, ma'nosi va kelib chiqish sabablari bor.

"Tarix" aziz arabcha "تاريخ" (tarikh) so'zidan olingan bo'lib, u "voqealarni vaqt bo'yicha tartib bilan bayon qilish, "o'tgan hodisalar haqidagi bilim" degan ma'nolarni anglatadi. Asl kelib chiqishiga ko'ra bu so'z qadimgi arab tilida "belgilash", "aniqlash" ma'nosini ham bildiradi. Shu kungacha tarix insoniyatning o'tgan hayoti, madaniyati, siyosati, urushlari, taraqqiyoti haqida ma'lumot beruvchi fan sifatida shakllanib kelmoqda. Uning rivojlanishida qadimgi xalqlarning yozma yodgorliklari, shuningdek, tarixchilar tomonidan yozilgan asarlar muhim o'rin tutadi. Dastlabki tarixiy yozuvlar qadimgi Mesopotamiya, Misr, Xitoy va Yunonistonda paydo bo'lgan. Yunon faylasufi Geredot (mil.avv. V asr) tarixiy voqealarni tizimli ravishda yozib qoldirgan birinchi olimlardan hisoblanadi va "tarixning otasi" deb e'tirof etiladi.

Bugungi kunda tarix fan sifatida faqat o'tgan voqealarni yoritibgina qolmay, balki ularning sababi va oqibatlarini o'rganadi hamda ularni tahlil qilish orqali kelajak uchun saboq chiqarishga poydevor bo'lishga ham yordam beradi. Shu o'rinda yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning "Biz buyuk tarix, buyuk davlat, buyuk madaniyat yaratgan xalqmiz" degan fikrlariga to'xtalib o'tsak.

Avvalambor, "buyuk tarix" deganda O'zbekiston hududida tashkil topgan qadimiy davlatlar: Xorazm, So'g'diyona, Baktريا, Buyuk ipak yo'li va Temuriylar davri jahon tarixida katta o'rin tutadi. O'zbekiston tarixi mustaqillik davridan oldin ham Markaziy Osiyoning muhim siyosiy markazlaridan biri bo'lgan. Amir Temur, Shayboniylar, Xiva, Qo'qon va Buxoro xonliklari kabi tarixiy davlatlarimizning borligi buyuk davlat bo'lganimizdan dalolatdir. Ma'daniyatda ham ham o'zbek xalqi jahon miqiyosida ulkan hissa qo'shgan. Bularga Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Bobur va Mirzo Ulug'bek kabi allomalarimizni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Ular ilm-fan, adabiyot va san'at rivojiga katta ta'sir ko'rsatishgan.

Xo'sh, tarix insoniyatga nima beradi?



Avvalo o'tmishni anglash orqali kelajakni shakllantirish mumkin. har bir millat va davlat o'z tarixini bilishi orqali o'z kelajagini rejalashtiradi. Milliy o'zlik va madaniyatimizni saqlaymiz, ya'ni tarixsiz xalq- o'z ildizlarini yo'qotgan daraxtga o'xshaydi. Axir sobiq prezidentimiz Islom Karimov ham "Tarixsiz-kelajak yo'q" deb bejiz aytmaganlar. Tarixni o'rganish orqali biz ajdodlarimiz kim bo'lgan, qanday meros qoldirishgan, madaniy qadriyatlarimiz qanday shakllanganini bilib olamiz. Siyosiy va ijtimoiy saboqlar chiqaramiz, texnologik va ilmiy taraqqiyot saboqlarini olamiz hamda aql-idrok va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishimiz mumkin

Tarixni o'rganish yo'llari

#Kitoblar va ilmiy tadqiqotlar o‘qish

#Muzey va tarixiy joylarga tashrif buyurish

#Hujjatli filmlar va tarixiy ma’lumotlarni o‘rganish

#Arxiv hujjatlari va asl manbalarni tahlil qilish

O‘tmishdan saboq chiqarish va uni bugungi hayot bilan solishtirish

Xulosa

Tarix – bu faqat o‘tib ketgan voqealar jamlanmasi emas, balki kelajak sari yo‘l ko‘rsatadigan bir mayoqdir. U insoniyatga o‘z xatolarini tushunish, milliy madaniyat va an’analarni saqlash, jamiyat rivojlanish yo‘lini to‘g‘ri belgilash imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham tarixni o‘rganish shunchaki bir fan emas, balki hayotiy zaruratdir.

AGRO SOHALARDA FANLARNI O‘QITISHDA TALABALARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

**Qarshi davlat texnika Universiteti
talabasi Maxmiyev Afro‘zbek Dadaxon o‘g‘li**

**“Qishloq xo‘jaligi masalasini alohida e‘tiborga olib,
tez-tez muhokama qilib borayotganimiz bejiz emas.**

**Chunki bu iqtisodiyotning to‘rtidan bir qismini
tashkil qiladigan muhim soha. Buning zamirida
xalqimiz farovonligi, narx-navo barqarorligi, qancha
ish o‘rinlari yotibdi”**

Prezident: Shavkat Mirziyoyev.